



FEATURES OF THE FORMATION OF COMPUTER AND INTERNET JARGON.

Nasiba Nasrulloeva,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM

"Samarqand kampusi. Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar"

kafedrasi dotsenti, Fil.f.f.d(PhD)

e-mail: nasibanasrulloeva@gmail.com

tel: 998 90 271 51 88

Abstract The article discusses the linguistic features of computer and Internet jargons and their formation development. The terminology of each language is formed by creating words on the basis of the lexical fund of the language, changing the lexical meaning of the word, borrowing terms from another language, the formation of combinations based on the laws of this language, is formed by making a loan of existing term in another language.

Key words: computer, term, Internet, jargon, professional jargon, metaphorization, development, characteristic, borrowings.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНОГО И ИНТЕРНЕТ-ЖАРГОНА.

Аннотация В статье анализируются лингвистические особенности компьютерного и интернет - жаргона и развитие их формирования. Терминология каждого языка формируется путем создания слов на основе лексического фонда языка, изменения лексического значения слова, заимствования терминов из другого языка, образования сочетаний по законам этого языка, путем кальки существующего термина на другом языке.

Ключевые слова: компьютер, термин, Интернет, жаргон, жаргонизация, профессиональный жаргон, жаргонизм, метафоризация, развитие, характеристика.

KOMPYUTER VA INTERNET JARGONLARINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Аннотация Ushbu maqolada kompyuter va Internet jargonlarining lingvistik xususiyatlari va ularni shakllanish taraqqiyoti tahlilga tortilgan. Har bir tilning terminologiyasi mazkur tilning leksik fondi bazasida so'zlar yasash, so'zning leksik ma'nosini o'zgartirish,

boshqa tildan terminlar o‘zlashtirish, shu tilning qonuniyatlari asosida birikmalar tuzish, boshqa tilda mavjud termini kalkalash orqali shakllanadi.

Kalit so‘zlar: kompyuter, termin, Internet, jargon, jargonizasiya, professional jargonlar, jargonizm, metaforizasiya, taraqqiyot, xususiyat.

Kirish Kompyuter va internetning hozirgi kunda jadal o‘tib borishi tilimizda yangi atamalar va jargonlar paydo bo‘lishiga sabab bulmokda. Bu atama va jargonlarning shakllanish jarayoni tilning rivoji va tendentsiyalariga bog‘liqdir. Oxirgi paytlarda tilshunoslikda kompyuter va butun jahon Internet tarmog‘i terminologiyasiga bag‘ishlangan ko‘pgina tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Kompyuter va Internet tizimlarining rivojlanishi jamiyatda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar bilan bog‘liq axborot olishga asoslangan bilimlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq. "Jamiyatda yuz beradigan har qanday jarayonning aksi dastavval terminologiyada o‘z ifodasini topadi yoxud muayyan terminlarning transformasion o‘zgarishi natijasida namoyon bo‘ladi" [2,9].

Kompyuter va Internet texnologiyalarining taraqqiyoti, inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa sohalarining rivojlanishi kabi tilda yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi. Baxtin M.M. aytganidek, "... odamlarning barcha sohalaridagi faoliyati tildan foydalanish bilan bog‘liq" [1, 159], kompyuter va Internet sohasi ham bundan istisno emas, albatta. D. Saidqodirova: "dunyo kompyuter tarmog‘i o‘zida cheksiz axborot va ma'lumotlarni jamlaydi. Internet – bu turli-tuman ma'lumotlar omboridir. Ushbu ma'lumotlardan foydalanish uchun omborga kirish imkoniyatiga ega bo‘lish etarlidir. Aynan shu imkoniyat Internet foydalanuvchilarini o‘ziga jalb etadi", – deb hisoblaydi [8, 10].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Darhaqiqat, o‘z ahamiyati va dunyo tamadduni rivoji hamda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga ta’siri borasida Internet davrimiz axboriy jamiyat timsoliga aylandi. "Jargon – biror bir ijtimoiy guruhning faqat shu guruhga xos va boshqa odamlarga tushunarsiz so‘zlar va iboralarga boy nutqi (masalan, aktyorlarning j., dengiz j.)" [7,12]. Jargonlar nisbatan ochiq ijtimoiy yoki professional guruh nutqi, u adabiy tildan alohida so‘z va iboralari tarkibi bilan farqlanadi. M.Mirtojiev bu borada quyidagilarni ta’kidlaydi: "jargon jamoadagi tabaqalanish bo‘yicha o‘z tabaqasi va qarshi tabaqaga qo‘llanadigan terminlardir". Masalan, aslzoda, oqsuyak, yalangoyoq, qoracha, Xo‘ja, janob, Hazrati oliy kabi terminlarini ko‘rsatish mumkin"; "Argo ma'lum soha vakillarida qo‘llanilib, boshqalar uchun sir tutiladigan terminlardir. Masalan, o‘g‘rilar argosida pul loy, narsasini o‘g‘irlatgan shaxs harf va h.k." [6,55].

D.N.Satimova jargon borasida quyidagi fikrni keltiradi: "jargon - qo‘llanishi kasb yoki boshqa tor doiradagi kichik ijtimoiy guruh bilan chegaralangan, umumtildagidan o‘zgacha leksik ma'no anglatuvchi, faqatgina o‘zi xizmat qiluvchi guruhdagi kasb-kor egalari yoki tabaqa vakillari nutqida ularning didlari va talablari yoki kasb-koriga oid turli tushunchalarni anglatuvchi og‘zaki nutqqa xos so‘z va iboralar [9, 11].

G‘.H. Rahimovning "Britaniya va Amerika slengining sosiolingvistik xususiyatlari" nomli ilmiy tadqiqotida umumiy slengizm maxsus slengizmga qarama-qarshi qo‘yiladi: "...ikkala holda ham so‘zlashuv tili leksikasi va frazeologiyasining muayyan qatlamlari tushuniladi" [7, 37].

Jargon – bu faqat o‘ziga xos sun‘iy va ba‘zan shartli so‘z va iboralarga ega biror bir ijtimoiy guruh tili bo‘lib, umumxalq tilidan o‘ziga xos leksikasi va frazeologiyasi bilan farqlanuvchi ijtimoiy nutq turidir.

Yuqoridagi ta’rifdan kelib chiqadiki, kompyuter jargonlari kompyuter faoliyati sohasiga bevosita aloqador bo‘lmagan odamlarning nutqida ham paydo bo‘ladi, ya’ni bu kompyuter va Internet oddiy foydalanuvchilarining tili bo‘lib, ular ma’lum bo‘lganligi sababli yoki biron bir aloqa vositasi sifatida foydalanadilar. Ushbu sohadagi mutaxassislar - kompyuterchilar, tizim ma’murlari, xakerlar, geymerlar va h.k. tomonidan yaratilgan va ularni tashqi dunyodan ajratishga imkon beradigan professional jargondan foydalanadilar. Qator olimlarning fikricha, Internet jargonlarning barcha turli yasaliş usullari "inglizcha jargonni o‘zining sharoitlariga moslashtirish va doimiy qo‘llashga yaroqli qilish uchun" xizmat qilad. Ularning ayrimlari esa, hatto Internet jargonlarning yasalişida anglisizmlar asosiy rol o‘ynaydi, deb hisoblashadi [3, 47].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Kompyuter leksik jargoni va uning elementlarining rivojlanishi bilan o‘zaro almashinuvchanlik omonimiya, antonimiya va polisemiya bilan almashtiriladi va so‘z shakllanishi intonatsiya-zanjir xarakteriga ega bo‘ladi. Ingliz jargoni qorong‘u tuzilishga ega, bu esa bu jargonni dunyodagi eng taniqli jargonlardan biriga aylantiradi. Kompyuter lug‘ati (jargon) - bu informatika va unga aloqador tillarda ishlatiladigan leksik atamalar to‘plami. Kompyuter va Internet jargonidan foydalanish talaffuzda sezilarli o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Ulardan biri inglizcha so‘zni hisoblash va uni talaffuzga aylantirish uchun uning fonetik o‘zgarishi (CD-ROM - LED, qattiq disk - vint). E. Begmatovning fikricha, hisoblash takroriy jarayon bo‘lib, uning davomida bir usuldan ikkinchisiga o‘tish sodir bo‘ladi.: a) tilga mansublik; b) elementar funktsiyalar; C) til elementlari.

Birinchi hodisaning mohiyati kalkalanuvchi materialning o‘zga til hodisasi ekanligidir. Ikkinchi hodisa o‘zga materialning o‘z qatlami imkoniyati asosida kalkalashdir. Uchinchi hodisa o‘zga materialning o‘zga til so‘zlari bilan berilishidir (ya’ni, ruscha so‘zni o‘zbek tilidagi aslida Arabcha, forsha bo‘lgan so‘zlar bilan kalkalanishi). D. Kadirbekova: "kalka o‘z mohiyatiga ko‘ra so‘z yasaliş hodisasiga yaqin turadi, degan fikrga qo‘shilgan holda, kalkalashda ham tarjima yo‘li bilan yangi ma’no ifodalovchi yangi so‘zning hosil bo‘lishi tufayli buni so‘z yasaliş hodisasi deb atash mumkin", deb hisoblaydi [6, 51].

Tahlil va natijalar (Analysis and result). O‘zbekcha kompyuter jargoni turli usullar orqali shakllanadi:

1. Inglizcha so‘zni kalkalash va boshlang‘ich so‘zni talaffuz uchun qulay so‘zga aylantirish maqsadida uni fonetik qayta ishlash (CD-Rom - sidiyushka, vintchester - vint,

adminstrator - admin, flesh xotira - fleshka, ROM (Random access memory)-romka, programma - proga, klaviatura - Klava, Demo - demka, game over - gamover, bug - bag, hard drive - xard disk drayv, device - divays, noob - nub) va h.k.

2. O‘zbek tilida aytilishi jihatidan ingliz va ruscha so‘zga o‘xshash so‘zni qidirish (rus tilida Emelya, Milo E-mail so‘zidan, rus tili sovun tarzida bo‘lsa, o‘zbek tilida ko‘pik tarzida qo‘llanilmoqda). File - file, driver - drav, modem - moped, telegram - teleg, Sun Microssthems Computer Corparation - santexnika va h.k.

3. Inglizcha so‘zning so‘zma-so‘z tarjimasi (mother board dan - so‘zma so‘z. ona platasi), sichqon (mouse dan), ko‘prik (bridge), SPU tosh (CPU stone dan), Kurt(worm), megaword - megasuz, multisystem - multitizim, macrocommand - makrobuyruq va h.k.

4. O‘zbek tilida biror bir predmetni ifodalovchi so‘zni o‘ylab topish, masalan, @ – bu simvolni o‘zbek tilidagi varianti kuchukcha tarzida saqlanib qoldi. Jargonlarda metaforizasiya hodisasi ma'no tusini beruvchi va ingliz tili tashuvchilari muhiti uchun xos bo‘lgan konnotat asosiy o‘rinda turadi. Albatta o‘zbek va ingliz lisoniy manzarasidagi va mentalitetidagi tafovutlar bunga sabab bo‘ladi. Shu tarzda, kompyuter va Internet jargonlarida metaforizasiya xodisasi faqat bir tilgagina tegishli bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida chamadon – tashqi xotira qurilmasi; varaqalar - fayllar; ilon zahari – kompyuter virusi tezkor xotiradagi va diskdagi dasturlarni "zaharlaydi". Tarqatilish usullari, "tajovuzkorlik", virusga qarshi dasturlarni muhofazasini yengib o‘tadigan va tavsifnomalari bilan ajralib turadigan kompyuter viruslari xillari to‘plami mavjud. Zaharlash usuliga qarab kompyuter viruslari dasturiy yoki yuklovchi bo‘lishi mumkin.

Metaforik ma'no ko‘chishi kompyuter va Internet jargonlarining nomi sifatida ularga o‘tadi va nominasiya vazifasini bajaradi. O‘ziga muvofiq keluvchi yasama termin birligi orqali o‘z semantik ifodasini topuvchi o‘xshatish semantik termin yasashning asosiy operatori sifatida namoyon bo‘ladi. Ular semantik so‘z yasash jarayonlari natijasida hosil bo‘ladi. Ikkilamchi ifoda vositalari bo‘lgani uchun ular o‘zlarida ifodalanayotgan ob'ektga nisbatan munosabat, baho kabi qo‘shimcha ma'nolarni ham olib yurishadi.

Rang bilan bog‘liq bo‘lgan xolatlar: kompyuter tizimlarida rang bir necha model bilan tavsiflanishi mumkin bo‘lgan xolatlari, asosiy "qizil, yashil, ko‘k" ranglarni yagona tarzda birikmasi RGB deb ataluvchi model, ko‘pgina kompyuterlarda foydalaniladi. Ularda jargonlarni metaforizasiya xodisasini kuzatish mumkin: "qizil ishton"; "Feruza ko‘z"; ko‘k osmon"; oq yig‘im - Amerika, Evropa va boshqa joyda ishlab chiqarilgan kompyuter va modemlar; sariq yig‘im - Xitoy, Singapur va boshqa joyda ishlab chiqarilgan kompyuter va modemlar; qizil yig‘im – MDH davlatlarida yig‘ilgan kompyuter qismlari; moviy ekran sinonimi ajal ekrani inglizcha Blue screen of death – ushbu metaforik jargoni Microsoft Windows tizimida qayta yuklashni talab qiladigan jiddiy xato (odatda operasion tizim yadrosidagi ishlov berilmagan uzilish) haqida xabar ma'nosini bildiradi. Xalkaro biznes mashinasi – IBM (International Business Machines) termini o‘zbek tilida moviy, ko‘k gigant metafora jargoni orqali ifodalanadi. Shuningdek, o‘zbek tilida qora san'at va qora jodu jargonlari ingliz tilidan

o‘zlashgan bo‘lib, black art – dasturlashning turlaridan biri anglatadi; black magic – tushunarsiz qurilmaning ish kodini anglatadi; ko‘k tish (inglizcha Bluetooth) - aloqa texnologiyasi. Jargon nutqdagi ifodalilikni oshirish, emosiylar va baholarni etkazish maqsadida qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Kompyuter va Internet leksikasi tarkibiga terminologiyadan iborat adabiy leksika hamda kompyuter professionalizmlari va jargonizmlaridan iborat noadabiy leksika kiradi va har ikkala toifadagi leksika o‘z vazifasini bajaradi va o‘z qo‘llanish sohasiga ega. Internet jargonining leksik tarkibi, uning tematik strukturasi professional faoliyatning emotsional yoki an'anaga ko‘ra u yoki bu bahoga loyiq tomonlariga ishora qilishini taxmin qilish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бахтин М. М. Собрание сочинений в 7 т. Т. 5. Работы 1940-х - начала 1960-х гг. / ред.: С. Г. Бачаров, Л. А. Гоготишвили. Ин-т мировой лит. – Москва. 1997. – С. 159.
2. Даниленко В.П. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам // Семиотические проблемы языков науки, терминологии и информатики. – Москва: МГУ. 1971. – С. 9.
3. Ефимова О.А. Происхождение и словообразование жаргона пользователей сотовых телефонов // Вестник Вятского государственного университета. 2. - № 4 – Ташкент. 2009. – С. 47.
4. D.Qodirbekova Inglizcha-o‘zbek axborot- kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari. Fil.f.f.d. disser. – Toshkent. 2017.
5. Мелконян Н.И. К вопросу о способах образования компьютерного сленга // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. - № 1,
6. Mirtojiev M.M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zMU. 2000. – B. 54 - 58.
7. Rahimov G‘.H. Britaniya va Amerika slengining soslolingvistik xususiyatlari: Fal. fan. nomz. ...diss. – Samarqand. 2006. – B. 37.
8. Saidqodirova D.S. Ingliz va o‘zbek tillarida Internet terminlarining lingvistik tadqiqi. Falsafa. fanlari nomzodi ...dis. – Toshkent. 2017.– S. 10.
9. Satimova D.N. Ingliz va o‘zbek yoshlar slengining qiyosiy tahlili. Filol.f.bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disser. Avtor. – Andijon. 2020. – B. 11